

**SOHIBQIRON AMIR TEMUR MUNOSIB TAXT VORISI TOPISH ILINJISIDA****Urunov Shoxijahon Jamshidovich**

Buxoro davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrası 2-bosqich talabasi

urunovshoxijahon@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7644123>

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada buyuk ajdodimiz, insoniyat tarixidagi eng qat'iyatli shaxslardan biri bo'lgan sohibqiron Amir Temurning yeti yillik urushdan qaytib kelishi bilan qilgan ishlari, uning ahvoli, munosib taxt vorisi topish ilinjisida amalga oshirgan rejalari va vafoti haqida fikrlar boradi. Amir Temur – xalqimiz tarixidagi butun jahon tamadduniga beqiyos hissa qo'shgan buyuk shaxs hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Ulug'bek, Xitoy, taxt vorisi, Bog'i behisht, Xalil sulton.

Amir Temur yetti yillik urushdan qaytib kelishi bilanoq Xitoy yurishi taraddudiga tushdi. U bu harbiy yurish yurishning tamom rejasini ikir-chikirigacha qo'ymay, dastlab 807 yilning muharram oyi (1404 yilning iyul oyi) da mo'tabar xotinlaridan Tuman og'oga qarashlik Bog'i behishtda bir hafta chamasi bir oz tobi qochib yotib qolgan kezlari, keyin Bog'i chinorda suyuqli nabirasi mirzo Ulug'bek bilan turgan paytlarida bir qadar pishirib oldi. O'sha kunlari, ayniqsa kasali zo'raygan paytlarda, toj-taxt taqdirini ham ko'p o'yladi. Bir cheti Rumda, ikkinchi tarafi Koshg'ar bilan tutash bo'lgan davlatni kimning inon-ixtiyorida qoldirish xususida ham ko'p tashvish tortdi. To'rt o'g'ildan ikkitasi otadan avval hayotdan ko'z yumishgan: to'ng'ich o'g'il Jahongir mirzo 1376 yili yigirma yoshida o'z ajali bilan vafot etgan, ikkinchisi Umarshayx mirzo bo'lsa 1394 yilning yanvar oyida Rum urushi vaqtida yo'lda halok bo'lgan. Tirik qolganlari orasida esa Temur o'ziga munosib voris topmadi. Mironshoh otasiga o'xshab jasur va beshavqat odam edi. Masalan, u 1389 yili ziyofat chog'ida bir vaqtlar Hirot va unga tobe bo'lgan yerlarga hukmdor bo'lgan Kartlar sulolasining (1381 yili Temur tomonidan tugatilgan) so'nggi namoyondasi Pirmuhammadni dasturxon ustida shartta chopib tashladi. Ertasi kuni Temur uni tergovga olganda qattiq mast holda shunday jinoyatga qo'l urganini bahona qilib ko'rsatgan. Kenja o'gil Shohrux o'qimishli, taqvodor va

vazmin odam edi, lekin harbiy ishga ko'p ham rag'batini yo'q edi. Taqvodorligi shu qadar ediki, surayni ixlosni kuniga yuz marta o'qimasdan yotmas edi. Sohibqironning yigirma nevarasi bor edi. Temurbek nevaralaridan faqat Muhammad Sulton, Xalil Sulton va Mirzo Ulug'bekni ko'proq suyardi. Muhammad Sulton aqlli, mulohazali va jasur yigit edi. U bobosining deyarli hamma harbiy yurishlarida ishtirok etib, o'zini jangda ko'rsata bilgan yigit edi. Afsuski, u Rum yurishi vaqtida 1403 yilning 13 mart Qoraxisor yonida kasal bo'lib vafot etadi. Mironshohning besh o'g'li orasida Xalil Sulton boshqacha edi. U 1384 yili tug'ilgan. U ham bobosining harbiy yurishlarida faol qatnashib, mardlik va qahramonlik namunalarini ko'rsatgan. U, ayniqsa, Sulton Maxmudxon bilan Dehli ostonasida 1598 yilning 18 dekabrda bo'lgan urushda tadbirkorlik va tashabbuskorlik ko'rsatib, tahsinga munosib ish qilgan edi.

Xalil Sultonni ilgari Temurbekning jiyani amirzoda Alining qizi Jahon Sulton begimga uylantirib qo'ygan edilar. Ammo, u qonuniy xotini bo'la turib, amir Hoji Sayfiddinning cho'risi sohibjamol Shodimulkni yoqtirib qolib, uni Hojasidan tortib olib, yashirincha nikohlab oladi. Temurbek buni eshitib darg'azab bo'ladi. Temur o'zboshimcha nevarasining gunohidan o'tdi-yu, lekin endi uni valiahd qilish niyatidan qaytdi.

Endi nomzod sifatida Mirzo Ulug'bekka navbat keldi. Ulug'bek zehni, aqli, farosati bilan boshqalardan ajralib turardi. Amir Temur bu nevarasini jondan sevardi, uni ko'pchilik oldida "ko'zimning nuri, saltanatimning umidli niholi", deb erkalatardi. Lekin, Ulug'bek Mirzo nozik bo'lib o'sdi, buning ustiga ko'p vaqtini kitob o'qish bilan o'tkazar, davlat ishlarida kam jonbozlik ko'rsatardi.

Valiahdlikka birdan bir nomzod Pirmuhammad Jahongir edi, chunki u, birinchidan, boshqalardan yosh jihatdan katta edi. U o'sha paytda yigirma to'qqizga kirgan edi. Ikkinchidan, esa uning davlatni boshqarishda tajribasi bor edi. Pirmuhammad Jahongir bir vaqtlar Mahmud G'aznaviyga tegishli ulkan bir mamlakatni idora qilishdek mushkul bir vazifani anchadan beri uddalab kelayotgan edi. Shuning uchun ham sihibqiron uni valiahd qilishni bir qadar ko'nglidan o'tkazib qo'ydi.

Amir Temur o'limi oldi nabiralari va quroldosh amirlarini o'zaro ittifoq hamda do'stona hayot kechirishlarini istab, o'ziga voris etib tayinlangan Pirmuhammadga itoat etishlarini vasiyat qilgan. Hatto Temur hilvatxonagohida hozir bo'lgan amirlardan Shohmalik va Shayx



Nuriddinlar uning vasiyati vojibini og'ishmay so'zsiz ado etishlari haqida va'da ham berganlar.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Dadaboyev H. Ajdodlarimizning harbiy mahorati. – T.: Akademnashr, 2016. –B.176;
- 2.Ibn Arabshox.Ajoyib al-makdur fi tarixi Taymur (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari). – T.: Mehnat, 1992 ;
- 3.Bo'riboy Ahmedov. Sohibqiron Temur. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1996. –B.136;
- 4.Bo'riboy Ahmedov. Mirzo Ulug'bek. – T.: Yozuvchi nashriyoti, 1994. –B.15-16;
- 5.Muhammadjonov A. Temur va temuriylar saltanati. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1994. –B.30.